



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ismonaliyev Jamoliddin Qo'ldashaliyevich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Jamolbek_0608@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamon kategoriyasining tilshunoslikda tutgan o'rni, uning o'rganilishining ahamiyatiga urg'u berilgan. O'zbek va ingliz tillaridagi zamon kategoriyasining o'ziga hos xususiyatlari asosiy tadqiqot obekti sifatida tahlil qilinib, ushbu tillarda fe'l zamonlarining hosil qilinishidagi umumiy va farqli jihatlari o'rganilgan. O'zbek tilidagi fe'l zamonlarini hosil qilibchi fe'l formalari hamda ingliz tilidagi zamon va aspektlar, fe'llarning flektiv shakllariga diqqat qaratilgan. Bir qator yetuk o'zbek va ingliz tilshunoslarining zamon kategoriyasiga oid fikrlari va nazariyalariga e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: zamon, fe'l, flektiv shakl, fleksiya, sinkretizm, ko'makchi fe'l, asosiy fe'l, to'g'ri fe'l, noto'g'ri fe'l, sifatdosh

ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КАТЕГОРИИ ВРЕМЕНИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье подчеркивается роль категории времени в лингвистике и важность ее изучения. В качестве основного объекта исследования анализируются особенности категории времени в узбекском и английском языках, а также изучаются общие и различные аспекты образования времен глаголов в этих языках. Уделяется внимание глагольным формам, образующим времена глаголов в узбекском и английском языках, временам и видам, флексивным формам глаголов. Уделено внимание мнениям и теориям ряда узбекских и английских лингвистов относительно категории времени.

Ключевые слова: время, глагол, флексивная форма, словоизменение, синкретизм, вспомогательный глагол, смысловой глагол, правильный глагол, неправильный глагол, притчаствие.

TYPOLOGICAL CHARACTERISTICS OF TENSE CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract: This article emphasizes the role of tense category in linguistics and the significance of its study. The specific features of the tense category in Uzbek and English languages are analyzed as the main object of research, and the common and different aspects of the formation of verb tenses in these languages are studied. Attention is paid to verb forms that

form verb tenses in Uzbek as well as tenses and aspects, inflectional forms of verbs in English. The ideas and theories of a number of Uzbek and English linguists regarding the tense category were referred to.

Key words: tense, verb, inflectional form, inflection, syncretism, auxiliary verb, main verb, regular verb, irregular verb, participle

KIRISH

Turli tizimli tillarda fe'llarning zamon kategoriyasi muhim grammatik kategoriya hisoblanadi. Fe'l yordamida ifodalanadigan har qanday harakat yoki holat biror bir zamon va makonda sodir bo'ladi va fe'l zamonlari harakat yoki holatni sodir bo'lish vaqtini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Zamonlar gaplarning ma'nosi va kontekstini tushunishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va ingliz tilshunosligida zamon kategoriyasining qiyosiy tadqiqi har ikki tilning grammatik tuzilishini, fe'l shakllari va ularning kontekstual qo'llanilishini tushunishga hizmat qiladi. Qiyosiy tahlillar yordamida ushbu tillarning zamon kategoriyasidagi farqli va o'xshash jihatlari aniqlanadi va bu esa o'z navbatida til o'rganuvchilariga o'zbek va ingliz tillarining xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Turli tizimli tillarda zamon kategoriyasining qiyosiy o'rganilishi lingvistik nazariyalarni rivojlantirish, umumiy lingvistik tamoyillarni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbek va ingliz tilshunosligida fe'l zamonlari keng tadqiq qilingan til sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida ikki tildagi zamon kategoriyasining o'ziga hos xususiyatlari va ularning farqli jihatlari qiyosiy metodlardan foydalangan holda tadqiq qilindi.

Mavzuni yoritilishi mobaynida o'zbek tilshunosligining zabardast olimlari, jumladan Ayyub G'ulomov, Azim Hojiyev, G'ani Abdurahmonovning fe'l zamonlariga oid fikr va nazariyalari, ular tomonidan yozilgan ilmiy manbalarga murojat qilindi. Shuningdek, ingliz tilidagi zamon kategoriyasini tahlil qilishda Randolph Quirk, Sidney Greenbaum, Geoffrey Leech, Jan Svartvik (*The Comprehensive Grammar of the English Language*), Marianne Celce-Murcia, Diane Larsen-Freeman (*The Grammar book : an ESL/ EFL teacher's course*), Rodney Huddleston Geoffrey K. Pullum (*The Cambridge Grammar of the English Language*) kabi tishunoslarning grammatik qo'llanmalari asos sifatida qo'llanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Fe'llardagi Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga bo'lgan munosabatini bildiradi [1,287b.]. Fe'llarning zamon kategoriyasi ish harakati yoki holatni nutq momentiga nisbatan munosabatiga ko'ra uchta asosiy bo'limga, yani o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarga ajratiladi. Harakatning nutq momentidan avval sodir bo'lishi o'tgan zamonni, nutq momenti bilan to'qnash kelishi hozirgi zamonni, nutq momentidan keyin kelishi esa kelasi zamon ekanligini ifodalaydi. Dunyoning aksariyat tillarida ushbu uchta asosiy zamon

tushunchasi mavjud bo‘lib, o‘zbek va ingliz tillarida ham ular asosiy zamon kategoriyasi sifatida namoyon bo‘ladi, ammo har ikki tilda ham ushbu uchta bosh zamonlar bir nechta subzamonlarni qamrab oladi. Bu yerda shuni takidlab o‘tish joizki, har ikki tilda yuqorida ta’kidlangan subzamonlar va ularning hosil qilinishi bir-biridan tubdan farq qiladi.

O‘zbek tilida o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonlarning barchasi fe’llarning zamon hosil qiluvchi formalari yordamida hosil qilinadi. Hozirgi maktab darsliklarida uchta zamon mavjudligi takidlanib, har uchala zamonni hosil qiluvchi fe’l formalariga urg‘u berib ketiladi. Oliy ta’lim darsliklarida esa har uchala zamon kengroq tahlil qilinib, ularning tarkibidagi subzamonlarga ahamiyat beriladi, ammo zamonlarning nomlanishi yoki zamon hosil qiluvchi formantlar borasida yakdil fikr mavjud emas. Buning asosiy sababi shundaki, hozirgi o‘zbek tili zamon hosil qiluvchi fe’l formalariga juda boyligi bilan harakterlanadi. Azim Hojiyevning fikricha, subzamonlarni tadqiq qilishda ularni shunchaki nomlash to‘g‘ri fikr emas, balki zamon hosil qiluvchi formalarni xususiyatidan kelib chiqib, ya’ni ularning nutq momentiga munosabatiga qarab guruhlab (o‘tgan zamon fe’li, hozirgi zamon fe’li, kelasi zamon fe’li kabi guruhlar) o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi [2,131].

Fe’llarning o‘tgan zamon hosil qiluvchi formalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: *-di, -gan, -gan edi, -gan emish, -gan ekan, -(i)b, -r edi*. Aksariyat o‘tgan zamon fe’l shakllarida suffikslar bilan birga *edi, ekan, emish* kabi to‘liqsiz fe’llarni ishtirok etishini uchramiz.

Ayyub G‘ulomov o‘zining fe’llarni o‘rganishga bag‘ishlangan “Fe’l” nomli qo‘llanmasida o‘tgan zamonni morfologik ko‘rsatkichlarning hilma-hilligi va ma’nodagi farqlariga qarab quyidagi turlarga ajratadi [3,22-23]: *o‘tgan zamon anqlik fe’li, tarixiy o‘tgan zamon fe’li, uzoq o‘tgan zamon fe’li, o‘tgan zamon hikoya fe’li, o‘tgan zamon eshitilganlik fe’li, tugallanmagan o‘tgan zamon fe’li (o‘tgan zamon davom fe’li)*. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida o‘tgan zamonlar turkumi o‘ziga hos xilma-xillik ifoda etadi. Ularning har biri mos zamon formasi bilan hosil qilinadi.

Hozirgi zamonda ham fe’llarning mos zamon formantlari mavjud bo‘lib, ular yordamida harakat yoki holatning nutq momenti bilan bir paytga to‘g‘ri kelishi anglashiladi. Fe’llarning hozirgi zamon shakli harakat yoki holatning o‘tmishda boshlangani, hali tugallanmagani va kelajakdagi malum paytga qadar davom etib turishini ifodalaydi, ya’ni o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi chegarada joylashadi. Fe’llarning hozirgi zamon formantlari sifatida quyidagilarni misol keltirish mumkin: *-a, -ay, -yap, -yotir, -yotib, -moqda*. (*o‘rganadi, ishlaydi, o‘qiyapti, kelayotir, yozayotibdi, ketmoqda*).

Ayyub G‘ulomov fe’llarning hozirgi zamon shaklini ikkita ekanligini ko‘rsatib o‘tadi va ularni hozirgi-kelasi zamon fe’li va konkret hozirgi zamon fe’li [3, 31 6.], deb nomlaydi.

Hozirgi-kelasi zamon formasi *-a* yoki *-y* affikslari va shaxs son qo‘shimchalari yordamida xosil qilinadi. Ushbu zamon formasi yordamida uch hil ma’no ifodalab berilishi mumkin:

1. Hozirgi zamon ma’nosini bildiradi (*Biz zavodda ishlaymiz*). Bu o‘rinda *ishlaymiz* fe’li aynan hozirgi jarayonni emas, balki o‘tmish va kelajak orasidagi keng davrni o‘z ichiga oladi, ammo nutq momentiga nisbatan hozirgi zamon hisoblanadi. Quyidagi misollarda ham ushbu

qonuniyatni kuzatish mumkin: *Men bo‘sh vaqtimda badiiy asarlar o‘qiyman. Ilhom maktabga boradi. Olim maktabda ingliz tilidan dars beradi.*

2. Kelasi zamon ma’nosini bildiradi (*Biz ertaga **ishlaymiz***). Ushbu misolda **ishlaymiz** fe’lining yolg‘iz o‘zi mustaqil ravishda kelasi zamonni ifodalay olmaydi. Kelasi zamon ma’nosi *ertaga* payt ravishi yordamida anglashiladi. Misollar: *Biz kelasi hafta sayohatga boramiz. Men kelasi yili maktabni tamomlayman.*

3. Umum zamon ma’nosini bildiradi (*Shifokorlar shifoxonalarda **ishlaydi***). Ushbu ma’nosiga ko‘ra hozirgi kelasi zamon formasi predmetning doimiy belgisiga aylangan qonuniyatni ifodalaydi. Misolda ko‘rsatilgan **ishlaydi** fe’li umumiy qonuniyatni ifodalab keladi. Quyidagi misollarda ham ayni qonuniyat kuzatiladi: *Bolalar shirinliklarni yaxshi ko‘rishadi. Aksariyat yoshlar g‘ayrat bilan ishlaydi.* Umum zamon xususiyati ayniqsa tabiat hodisalari, fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarda yaqqol kuzatiladi. Chunki bunday jarayonlar doimiy, o‘zgarmas qoidalar asosida takroriy sodir bo‘ladi. (*Quyosh sharqdan ko‘tariladi. Yer o‘z o‘qi atrofida aylanadi. Katalizator qo‘shilganida, har qanday reaksiya tezlashadi.*)

Hozirgi-kelasi zamon formasining yuqorida izohlangan birinchi va uchinchi ma’nolari ingliz tilidagi Present Simple (hozirgi oddiy) zamonining qonuniyatlari bilan aynan mos kelishini shu o‘rinda aytib o‘tish lozim.

Azim Hojiyev hozirgi-kelasi zamon formalarini tadqiq qilishda uning ikki formasi borligiga ahamiyat qaratadi [2,1576.]: hozirgi-kelasi zamon aniqlik formasi va hozirgi-kelasi zamon gumon formasi.

Hozirgi-kelasi zamonning gumon formasi sifatdoshning **-a(r)**, inkor shaklda esa **-mas** affikslari va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi, masalan, *kelarman, kelarsan, kelar, kelarmiz, kelarsiz, kellarlar, kelmasman, kelmassan, kelmas, kelasmiz, kelmassiz, kelmaslar.*

Azim Hojiyevning hozirgi-kelasi zamon aniqlik formasi borasidagi tahlillari Ayyub G‘ulomovning bu boradagi tahlillarini inkor etmaydi, ammo Ayyub G‘ulomov **-a(r)** affiksi yordamida hosil qilinuvchi zamon formasini kelasi zamon gumon fe’li sifatida, alohida zamon deb ko‘rsatadi [3, 36 6.].

Hozirgi zamonni hosil qilishda eng ko‘p uchratiladigan fe’l zamon formalaridan yana biri **-yap** affiksi hisoblanadi. Bu affiks yordamida hosil qilingan fe’l formasi ish harakati boshlanganligi, ayni paytda davom etayotganligi, hali ohiriga yetmaganligini ifodalaydi: *Biz mehmonlarni kutyapmiz. Ular halizamon kelib qolishadi.* Bu misolda kutish jarayoni boshlangan va nutq momentida davom etayotganligini va mehmonlar kelguniga qadar davom etishini tushunishimiz mumkin.

Ko‘pincha ushbu fe’l formasi ifodalagan harakat hozirgi-kelasi zamon formasi ifodalagan harakatga nisbatan qisqaroq muddatni qamrab oladi: *Bobuqul bobo bog‘da dov-darahtlarga ishlov berib, zavq bilan ishlayapti.* Bu misolda aynan hozirgi paytdagi ishlash jarayoni nazarda tutiladi. *Botirjon bankda bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlayapti.* Bu misolda, ammo, vaqtinchalik yoki qisqa muddatlik ish harakati ifodalanmagan. Bu yerda ham ish harakati boshlangan, hali

yakunlanmagan, davom etib kelayotganligini tushunish mumkin. Yuqoridagi misolni quyidagi hozirgi-kelasi zamon ifodalangan misolga tenglashtirish mumkin: *Botirjon bankda bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlaydi.*

Shuningdek, **-yap** affiksi yordamida kelasi zamon ma‘nosi ham ifodalab berilishi mumkin. Bunda ish harakati yaqin orada aniq sodir bo‘lishi ifodalab keltiriladi: *Ertaga qishki ta‘til boshlanadi. Biz ikki kunga Amirsoyga ketyapmiz.* Bu o‘rinda **ketyapmiz** fe‘li hozirgi zamonni emas, balki kelasi zamonni ifodalab kelayotganini tushunishimiz mumkin.

Bu o‘rinda shuni aytib o‘tish joizki, ingliz tilida ham aynan yuqoridagi **-yap** hozirgi zamon formasi ifodalagan ma‘no-mazmunlarni ifodalovchi zamon mavjud va bu zamonni Present Continuous tense (hozirgi davomiy zamon) deb ataladi. O‘zbek va ingliz tillari butunlar boshqa-boshqa tillar guruhiga kirishiga qaramasdan, qonuniyat va vazifalarning bu qadar o‘xshashligi e‘tiborga loyiq.

Fe‘llarning **-yap** hozirgi zamon hosil qiluvchi formasi **-yotib**, **-yotir**, **-moqda** kabi formalarga yaqin hisoblanadi. Aslida **-yap** formasi **-yotib** formasidan kelib chiqadi va hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligida kam qo‘llanadi. **-yotir** formasi esa asosan gazeta va poetic materiallarda uchratiladi:

Ko‘k bo‘ri kezgan sarhad itlarga talosh endi,

Ko‘tarilgan bosh emas, birgina quyosh endi,

Uchqun sochgan ko‘zlarning topingani yosh endi,

Turkiy elning shiddati so‘nganga o‘xshayotir. (Najmiddin Ermatov)

-moqda formasi esa kitobiy uslub bo‘lib, tantanali va jarangdor nutqlarda ko‘proq uchratiladi: *Ispaniya chempionatining 10-turi doirasida "Barselona" o‘z maydonida "Real"ni qabul qilmoqda. Valverde shogirdlari dastlabki 45 daqiqadan keyin raqib darvozasini 2 marta ishg‘ol qilib, ishonchli hisob bilan oldinda borishmoqda.*(Sport yangiliklaridan)

Hozirgi zamon fe‘lining tasviriy formasi ham mavjud. Bu formani hosil qilishda asosiy fe‘l **-b** affiksini olgan ravishdoshdan iborat bo‘ladi hamda *yot*, *tur*, *yur*, *o‘tir* kabi ko‘makchi fe‘llar ishtirok etadi: *kutib yotibdi, yozib turibman, ishlab yuribdi, kutib o‘tiribmiz.*

Yuqorida **-yap** affiksi yordamida hosil qilinuvchi fe‘l formasi, hozirgi-kelasi zamon fe‘l formasi hamda kelasi zamon gumon fe‘li yordamida kelasi zamonni hosil qilish haqida tahlillarga to‘xtalib o‘tdik, ammo kelasi zamonni hosil qilishda boshqa fe‘l formalari ham mavjud.

Qat‘iy kelasi zamon fe‘li -(a) jak affiksi asosida hosil qilinadi: *g‘olib bo‘lajakmiz, mag‘lub etajaksiz, egallayajak.* Ushbu fe‘l formasi hozirgi kunda zamonaviy o‘zbek tilida kam qo‘llanadi. Uning o‘rniga hozirgi-kelasi zamon fe‘l formasi ko‘proq ishlatiladi: *g‘olib bo‘lamiz, mag‘lub etasiz, egallaydi.* Shunga qaramasdan, ushbu zamon formasi yordamida ifodalangan qat‘iylik va aniqlik boshqa har qanday kelasi zamonlarga nisbatan kuchliroq sezdiriladi. Bu fe‘l formasi bazi turkiy tillarda, xususan, ozorbayjon va turk tillarida hozirgi kunda ham ko‘p qo‘llanishi kuzatiladi.

Tarixiy qat’iy kelasi zamon fe’li -gu, -g‘u, -ku, -qu kabi affikslar, shaxs-son qo‘shimchalari hamda *-dir* affiksi yordamida hosil qilinadi: topqusidir, borgumdir, borg‘usidir. Fe’llarning zamon hosil qiluvchi bu formasi o‘zbek klassik adabiyotida ko‘p uchraydi:

Har kimki, vafo qilsa — vafo topqusidur!

Har kimki, jafo qilsa — jafo topqusidur!

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki, yomon bo‘lsa — jazo topqusidur! (Z.M. Bobur)

Shuningdek, ushbu zamon hozirgi adabiy tilda poeziya va folklorda qo‘llanadi. [1, 298 6.]

Tarixiy qat’iy kelasi zamon fe’lining -gay, -g‘ay, -kay, -qay kabi formalari ham mavjud: *bo‘lg‘ay, chiqgaymiz, borgaymiz*. Fe’llarning bu formalari eski o‘zbek tiliga hosdir:

—Bir oy ichida yo‘lga chiqgaymiz, tayyorgarlik ko‘ring,—degan gapini quvonib qarshi oldi. (Pirimqul Qodirov)

Davlat bilan shod-u shodmon bo‘lg‘aysen,

Shavkat bilan mashhuri jahon bo‘lg‘aysen! (Z.M. Bobur)

Kelasi zamon davom fe’li -digan affiksi hamda ravishdoshning *-a* yoki *-y* yordamida hosil qilinadi: *ketadigan, boradigan, keladigan*. Bu formaning bo‘lishsiz shakli *-ma* affiksi yordamida yasaladi: *ketmaydigan, bormaydigan, kelmaydigan*. Fe’llarning bu formasi aslida qo‘shma fe’l bo‘lib *tur* fe’liga *-gan* affiksi qo‘shish bilan yuzaga kelgan sifatdosh formasidir.

Kelasi zamon maqsad fe’li -moqchi affiksini fe’llarga qo‘shish yo‘li bilan yasaladi: *ketmoqchi, bormoqchi, kelmoqchi*. Bu zamonning bo‘lishsizlik shakli *emas* to‘liqsiz fe’li yordamida yasaladi: *ketmoqchi emas, bormoqchi emas, kelmoqchi emas*. Kelasi zamon maqsad fe’li yordamida ish harakatini bajarish yoki bajarmaslik maqsadi ifodalab beriladi.


Ingliz tilida ham aynan kelasi zamon maqsad fe’liga mos keluvchi element mavjud. Ingliz tilida kelasi zamon maqsad fe’li “be going to” qurilmasi yordamida hosil qilinadi. Ushbu qurilma ingliz tilida alohida zamon hisoblanmasada, kelasi zamonlar bilan qiyosiy tahlil qilib keltiriladi.

O‘zbek tilida zamon hosil qilishda fe’l formalariga asoslanishimizni, har bir zamonning o‘ziga hos fe’l formalari mavjud ekanligini va zamonlar aynan shu formalar yordami bilan hosil qilinishini ko‘rib chiqdik. Bazi zamon formalari bir nechta zamonni hosil qilishda ishtirok etishini guvohi bo‘ldik.

Ingliz tilida esa zamonlar va ularning hosil qilinishi o‘zbek tilidagi zamon hosil qilish xususiyatlaridan tubdan farq qilishi tabiiy hol. Chunki o‘zbek va ingliz tillari turli tillar oilasiga mansub bo‘lib, ularda barcha tillarda uchratiluvchi umumiy tillarga hos xususiyatlardan boshqa o‘xshash jihatlarni topish qiyin.

Ingliz tilida ham asosiy uchta zamon, o‘tgan, hozirgi va kelasi (Past, Present and Future) zamonlar mavjud va ularni ajratishdagi xulosalar ham o‘zbek tilidagi zamon nazariyalari bilan umumiy jihatlarga ega.

Vaqt nazariy jihatdan cheksiz chiziqqa o‘xshatilishi mumkin. Unda doimiy harakatdagi “hozirgi moment” tushunchasi mavjud bo‘lib, undan keying keladigan har qanday narsa kelasi zamon va undan oldingi har qanday narsa o‘tgan zamonda hisoblanadi [4,175].



Now (hozir)

(1-chizma)

O‘tgan yillar mobaynida ingliz tilidagi fe‘l zamonlari va aspektlar o‘rtasidagi muhim farqlar uyg‘unlashib bordi. Hozirgi kunda ingliz tilida o‘n ikkita zamon mavjud ekanligi e‘tirof etiladi va ular Past, Present va Future (O‘tgan, Kelasi va Hozirgi) zamonlar to‘rt aspect (Simple, Perfect, Progressive, Perfect progressive) bilan birikishi natijasida yuzaga keladi. Quyidagi jadvalda zamon va aspektlarni kombinatsiyasini ko‘rishimiz mumkin [5,110]:

	Simple	Perfect	Progressive	Perfect Progressive
	Ø	have + -en	be + -ing	have + -en be + -ing
Present	<i>write/writes</i> <i>walk/walks</i>	<i>has/have written</i> <i>has/have walked</i>	<i>am/is/are writing</i> <i>am/is/are walking</i>	<i>has/have been writing</i> <i>has/have been walking</i>
Past	<i>wrote</i> <i>walked</i>	<i>had written</i> <i>had walked</i>	<i>was/were writing</i> <i>was/were walking</i>	<i>had been writing</i> <i>had been walking</i>
Future	<i>will write</i> <i>will walk</i>	<i>will have written</i> <i>will have walked</i>	<i>will be writing</i> <i>will be walking</i>	<i>will have been writing</i> <i>will have been walking</i>

Manba: Celce-Murcia & Larsen-Freeman, 1999, p. 110. (1- jadval)

Aspekt va va zamonlarning combinatsiyasi orqali o‘n ikki zamon nomi shakllanadi, misol uchun Present simple, Present progressive, present perfect progressive.

Yuqoridagi jadvalda zamon va aspektlar **write** hamda **walk** fe‘llari asosida ko‘rsatib berilgan. Fe‘llar Present simple (Hozirgi oddiy) zamonda o‘zining bosh shaklida qo‘llanishi mumkin: **write**, **walk**. Faqatgina hozirgi oddiy zamonda (Present Simple) uchinchi shaxs birlikda bosh shaklga **-s**, **-es**, **-ies** kabi affiksalar qo‘shib ishlatiladi: **writes**, **walks**. Qolgan barcha zamonlarda leksik fe‘llarning (lexical verbs yoki non-auxiliary verbs – ingliz tili lug‘atidagi

ko‘makchi fe‘l bo‘lmagan barcha fe‘llar) fleksiylanishi va sinkretizmini guvohi bo‘lamiz. Misol uchun, jadvalda **walked** fe‘li Past simple, Present perfect va Past perfect kabi zamonlarida birdek qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ingliz tilida zamon hosil qilishda o‘zgaruvchi leksemalarning flektiv shakllari qo‘llaniladi. Shu tufayli, To‘g‘ri va Noto‘g‘ri fe‘llarning (Regular and Irregular verbs) fleksiyalarini bilish juda muhim. Ularning fleksiylanishi orqali hosil qilingan plain, present, preterite, present participle va past participle shakllari zamonlar yasallishida ishtirok etadi.

O‘zgaruvchi leksemalarning flektiv shakllari to‘plami paradigma deyiladi va deyarli barcha leksik fe‘llar oltita shaklli paradigmaga ega. Barcha zamonlarda leksik fe‘llarning ushbu oltita shakli sihtirok etadi. *The Cambridge Grammar of the English language* kitobidan olingan quyidagi jadvalda buni ko‘rishimiz mumkin [6,74]:

			<i>take</i>	<i>want</i>	<i>hit</i>
Primary	{	preterite	<i>took</i>	<i>wanted</i>	<i>hit</i>
		present tense	<i>takes</i>	<i>wants</i>	<i>hits</i>
	{	3rd sg	<i>take</i>	<i>want</i>	<i>hit</i>
Secondary	{	plain	<i>take</i>	<i>want</i>	<i>hit</i>
		plain form	<i>take</i>	<i>want</i>	<i>hit</i>
		gerund-participle	<i>taking</i>	<i>wanting</i>	<i>hitting</i>
		past participle	<i>taken</i>	<i>wanted</i>	<i>hit</i>

(2- jadval)

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, o‘zgaruvchi leksemalarni asosiy (primary) va ikkilamchi (secondary) guruhlariga ajratilgan hamda **take, want, hit** fe‘llarining ikki guruhdagi oltita shakli ko‘rsatib o‘tilgan. Unda **take** va **hit** Noto‘ri fe‘llarga (Irregular verbs), **want** esa To‘g‘ri fe‘llarga (Regular verbs) misol tarzida keltirilgan. To‘g‘ri fe‘llarning Preterite (Past simple) va Past participle shakllari-**d, -ed, -ied** affikslari yordamida hosil qilinadi:

Base form/Infinitive	Preterite / Past simple	Past participle
Live	Lived	Lived
Walk	Walked	Walked
Try	Tried	Tried

(3- jadval)

Noto‘g‘ri fe‘llarning Preterite (Past simple) va Past participle shakllari **-d,**

-ed, -ied affikslari yordamida yasalmaydi. Ular ozchilikni tashkil qiladi va asosiy qoidaga bo‘ysunmaganligi tufayli Irregular verbs (Noto‘g‘ri fe‘llar) deb ataladi. Ularni alohida keltirilgan shakllari mavjud.

To‘g‘ri (Regular verbs) va Noto‘g‘ri (Irregular verbs) fe‘llarning Gerund-participle shakllari ularning bosh shakllariga (Base form/Infinitive) **-ing** qo‘shish orqali yasalladi.

Ingliz tilida zamon hosil qilishda yuqorida tahlil qilingan affikslarning o‘zigina yetarli bo‘lmaydi. Barcha zamonlarni yasallishida **do, be, have** kabi ko‘makchi fe‘llarning (auxiliary

verbs) mos shakllari ishtirok etadi. **Do** ko‘makchisining **do, does, did** shakllari hozirgi oddiy (Present simple) va o‘tgan oddiy (Past simple) zamonlarda so‘roq va inkor gaplarda qo‘llanadi. **Be** ko‘makchisining **am, is, are, was, were, be, been** kabi shakllari asosiy fe’llarning **Present participle** shakli bilan birgalikda davomiy zamonlarda, will, shall shakllari esa kelasi zamonlar hosil qilishda asosiy fe’llarning bosh shakllari (Base form/Infinitive) bilan birga ishtirok etadi. **Have** ko‘makchisining **have, has, had** shakllari esa tugallangan (Perfect) zamonlar hosil qilishda asosiy fe’llarning **Past participle** shakllari bilan birga qo‘llanadi. Demak, ingliz tilidagi aksariyat zamonlar ko‘makchi fellarning asosiy fellar bilan o‘ziga hos kombinatsiyasi asosida yasaladi. (1- jadvalga qarang)

Hozirgi oddiy va o‘tgan oddiy zamonlarda bo‘lishli darak gaplarda ko‘makchi ishtirok etmaydi. Qolgan barcha zamonlar ko‘makchi fe’llar (auxiliaries) hamda o‘zgaruvchi leksemalarning flektiv shakllari bilan hosil qilinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida **be, do, have** ko‘makchi fe’llarining ahamiyati katta. Ko‘makchi fe’llarning yana bir muhim jihati shundaki, barcha zamonlarda so‘roq va inkor gaplar hosil qilishda ulardan biri ishtirok etadi.

Hozirgi kunda ingliz tilini o‘qitishga qaratilgan har qanday manbalarda zamonlarni hosil qilish tartibi shunday yaxlit qilib keltiriladi. Bu izchillik o‘z navbatida butun dunyoda ingliz tilini o‘qitilishi va o‘rganilishini qulaylashtiradi.

XULOSA

Yuqorida asosan o‘zbek va ingliz tillaridagi zamon kategoriyasining umumiy va farqli jihatlariga to‘htalib o‘tildi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘zbek tili agglutinative til sifatida zamon hosil qilishda maxsus fe’l formalari qo‘llanishini talab etadi. O‘zbek tilidagi zamon hosil qiluvchi affikslar bilan qiyoslaganda ingliz tilidagi zamon hosil qiluvchi affikslar soni nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. Ingliz tilida asosiy fe’llarning flektiv shakllari bittadan ortiq zamonda ishtirok etadi, yani fe’l zamonlarida sinkretizm ko‘p kuzatiladi va fe’llarning fleksiyanishidan tashqari **be, do, have** kabi ko‘makchilarning ahamiyati katta, chunki aksariyat zamonlar ko‘makchi fe’llar va asosiy fe’llarning kombinatsiyasi asosida shakllanadi. Ingliz tilida har bir zamonni o‘ziga hos struktura asosida hosil qilinishi va aniq nomlab berilishi e’tiborga loyiq. Uzoq yillar mobaynida shakllangan zamon va aspektlarning uyg‘unligi fe’l orqali ifodalanadigan har qanday harakatni qachon sodir bo‘lishini detalli ifodalab bera oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F.A.Абдурахмоновнинг умумий тахрири остида. Ҳозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966. —287 б.
2. Ҳожиёв А . Феъл. — Тошкент: Фан, 1973. — 131 б.
3. Гуломов А.Ғ. Феъл. — Тошкент. Ўзбекистон, 1954. —22-23 б.
4. Randolph Quirk, Sidney Greenbaum, Geoffrey Leech, Jan Svartvik. The Comprehensive Grammar of the English Language.— New York: Longman Inc., 1985— p.175
5. Marianne Celce-Murcia, Diane Larsen-Freeman. The Grammar book : an ESL/ EFL teacher’s course. —The United States of America: Heinle & Heinle publishers, 1999, — p. 110.
6. Rodney Huddleston Geoffrey K. Pullum. The Cambridge Grammar of the English Language. —The United Kingdom: Cambridge University Press, 2002—p.74